



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2

2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Jahongir Rasulovich Zaynalov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Kambag‘allikni qisqartirishda turizm xizmatlarining o‘rni	63
Озода Мамаюнусовна Пардаева “Ақлли туризм” соҳасида оилавий тадбиркорлик тизимини ривожлантириш йўналишлари	67
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Мехринисо Мирзохидовна Кахрамонова Тренды устойчивого туризма и их применение в Узбекистане	71
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Kamola Abdumurodova, Dilnoza Shokirova O‘zbekistonda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari	77
Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida turistik dala hovlilar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	80
Камилла Бахромовна Суюнова Современные маркетинговые подходы в туризме	87
Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarida turistik sig‘im imkoniyatlari	91
Raxmatulla Hayitboyev, Bobir Zoirovich To‘qsonov Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	98
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Гули Авазхон қизи Ганиева Оценка конкурентоспособности туристических предприятий на региональном рынке	102
Nurbek Janon o‘g‘li Toshev Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sohasining konseptual modelini takomillashtirish	105
Raxmatulla Hayitboyev, Shohzod Baxtiyor o‘g‘li Sadinov, Feruz Yorqin o‘g‘li Hasanov Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	110
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlari	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Buxoro viloyatida avtoturistlar uchun “Avtoturargoh” loyihasini amalga oshirish istiqbollari	116
Temurbek Salomov Ziyorat turizmining barqarorligini oshirish va xizmatlar sohasiga ta’siri	122
MENEJMENT VA MARKETING	
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov, Mashxura Toirxonovna Alimova Oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish	126
Xilola Nematovna Ochilova Boshqarish tizimida raqobatbardoshlikni oshirishda karyerani rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati	130
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirish	135
Samar Safarovich Bozorov Mintaqa milliy turizm bozorining kotent marketing brendining shakllanish darajasi	139
Sadulla Shodiyevich Urazov Tashkilot boshqaruvida CAPI modelidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	143

MENEJMENT VA MARKETING

Azizjon Isroiljonovich Ibroximov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti

Mashxura Toirxonovna Alimova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori, i.f.d

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA KPI TIZIMINI SAMARALI JORIY ETISH VA YURITISH

Annotatsiya. Ushbu maqola OTMlarda KPI tizimining joriy holatini yaxshilash va undan samarali yurishda xorij tajribasidan foydalanish yoritib berilgan. Ta'lim jarayonida professor-o'qituvchilar va xodimlar faoliyatini to'g'ri baholashda KPI tizimining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi hamda moliyaviy natijalarni oshirishda KPI ko'rsatkichlarini amaliy qo'llay usullari ko'rib chiqilgan. KPI tizimini joriy etish jarayonidagi afzalliklar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: KPI, zamonaviy boshqaruv jarayoni, OTM, samaradorlik, talabalar, potensial qobiliyat, shaxsiy ko'rsatkichlar, ko'rsatkichlar, reyting, daromad.

Kirish. Zamonaviy talablarga javob beradigan oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bugungi kunda eng muhim muammolardan biridir. Globallashuv, raqobatning kuchayishi va ta'lim sifatiga bo'lgan talablarning ortishi oliy ta'lim muassasalarida yanada samarali boshqaruvni talab qiladi. Shuning uchun, ta'lim jarayonini ma'lum mezonlar asosida baholash, professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlarning ish faoliyatini kuzatish va muassasa faoliyatini strategik maqsadlarga muvofiqlashtirish uchun KPI (asosiy samaradorlik ko'rsatkichi) tizimlaridan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda KPI tizimi rivojlangan mamlakatlardagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Ushbu tizim tadqiqot faoliyati, o'quv jarayoni, talabalarni qabul qilish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy samaradorlik kabi ko'rsatkichlarni muntazam ravishda baholaydi. Natijada, ta'lim muassasalari o'z faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni aniqlay va bartaraf eta oladilar.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bunday sharoitda xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan shaklda joriy etish muhimdir. Xususan, samarali KPI tizimi ta'lim sifatini, boshqaruv shaffofligini va xodimlar faoliyatini yaxshilashi mumkin.

Shu munosabat bilan, oliy ta'lim muassasalarida KPI tizimlarini samarali joriy etish va qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro tajribadan foydalanishni o'rganish ilmiy va amaliy nuqtai nazardan dolzarb masala hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini nazorat qilish hamda strategik rivojlanishni ta'minlash masalalari ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Global raqobatning kuchayishi, xalqaro reyting tizimlarining kengayishi va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi oliy ta'lim muassasalarini faoliyat natijalarini aniq baholash tizimlarini joriy etishga undamoqda. Shu sababli KPI (Key Performance Indicators – asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) tizimi zamonaviy boshqaruvning muhim vositalaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda KPI tizimi tashkilot faoliyatini strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida talqin qilinadi. Xususan, R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan “Balanced Scorecard” konsepsiyasida tashkilot faoliyatini faqat moliyaviy natijalar asosida emas, balki ichki jarayonlar, mijozlar ehtiyojlari va rivojlanish ko'rsatkichlari orqali ham baholash zarurligi ta'kidlangan. Olimlarning fikricha, samarali indikatorlar tashkilot strategiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi va boshqaruv qarorlarini aniq ma'lumotlar asosida qabul qilishga yordam berishi kerak.

A. Neely esa samaradorlikni baholash tizimi doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozimligini qayd etadi. Uning ta'kidlashicha, noto'g'ri yoki eskirgan ko'rsatkichlardan foydalanish boshqaruv samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shu sababli KPI ko'rsatkichlari aniq, o'lchovli va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi zarur.

Oliy ta’lim tizimida KPIlardan foydalanish masalalarini o’rgangan J. Burke universitet faoliyatini baholashda faqat akademik natijalar emas, balki talabalar qoniqishi, bitiruvchilarning bandlik darajasi, ilmiy tadqiqotlar samaradorligi va jamiyat bilan hamkorlik kabi omillar ham muhim ekanligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv oliy ta’lim muassasalari faoliyatida manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini ko’rsatadi.

M. Beerkensning fikricha, zamonaviy universitetlar global ta’lim bozorida raqobatbardosh bo’lishi uchun KPI tizimidan samarali foydalanishi kerak. Olim universitetlar faoliyatini baholashda ilmiy innovatsiyalar, xalqaro hamkorlik, raqamli transformatsiya va ta’lim sifati kabi ko’rsatkichlar muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi.

Rossiyalik olimlar Elena Vladimirovna Luneva va Vladimir Petrovich Filinov oliy ta’lim tizimida KPI asosidagi boshqaruvga o’tish jarayoni jadallashayotganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, KPI tizimi nafaqat alohida xodimlar faoliyatini, balki kafedralar, fakultetlar, ilmiy markazlar va butun ta’lim muassasasi faoliyatini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, u KPI tizimini joriy etishda xorijiy tajribani chuqur o’rganish va turli omillarni hisobga olish zarurligini alohida qayd etadi.¹

Samson Worku Teshome esa oliy ta’lim muassasalari bugungi kunda o’z samaradorligi va qiymatini isbotlash bosimi ostida faoliyat yuritayotganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, KPI tizimi ta’lim muassasalarida dalillarga asoslangan qarorlar қабул қилиш, hisobdorlikni kuchaytirish va strategik boshqaruvni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Olim KPilar orqali talabalar natijalari, professor-o’qituvchilar ilmiy faoliyati, moliyaviy barqarorlik va tashkiliy samaradorlik monitoring qilinishini qayd etadi.²

Mustafaqulova M.B. ham oliy ta’lim tizimida natijaga yo’naltirilgan boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati ortib borayotganini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, KPI tizimi universitet faoliyatining asosiy yo’nalishlari – ta’lim sifati, ilmiy salohiyat, xalqaro integratsiya, boshqaruv samaradorligi va ijtimoiy ta’sirni kompleks baholash imkonini beradi. Shuningdek, talabalarning akademik natijalari, o’qituvchilar malakasi, ilmiy tadqiqotlar samaradorligi va bitiruvchilarning mehnat bozoridagi muvaffaqiyati kabi ko’rsatkichlar universitet faoliyatini baholashda muhim mezon hisoblanadi.³

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, KPI tizimi oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruvni rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Biroq mavjud tadqiqotlarda KPI tizimini milliy oliy ta’lim tizimi sharoitiga moslashtirish, uni samarali joriy etish mexanizmlari hamda amaliy qo’llash masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish bo’yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim. **Asosiy samaradorlik ko’rsatkichlari (KPI)** - bu zamonaviy kompaniyalar va dunyoning top oliy ta’lim muassasalari tomonidan samarali boshqarish va tashkilotning strategik va taktik maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan o’zaro bog’liq ko’rsatkichlar to’plami.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot jarayonida kuzatish, nazariy tahlil, analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. OTMlarida asosiy samaradorlik ko’rsatkichlari (Key Performance Indicators, KPI) – oliy ta’lim muassasalarining strategik va taktik maqsadlariga erishish darajasini baholashga xizmat qiluvchi samaradorlik ko’rsatkichlari tizimidir. Ushbu tizim ta’lim jarayonining natijadorligini miqdoriy jihatdan o’lchash, professor-o’qituvchilar, xodimlar hamda bo’limlar faoliyatini baholashda muhim vosita hisoblanadi. KPI ko’rsatkichlari orqali ta’lim sifati, ilmiy faoliyat samaradorligi, talabalar o’zlashtirishi, xalqaro hamkorlik, bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanishi va boshqaruv natijalari aniqlanadi. Shu bilan birga, KPI tizimi oliy ta’lim muassasasining o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga erishish darajasini nazorat qilish va faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida KPI ko’rsatkichlari tashkilot oldiga qo’yilgan maqsadlarning amalga oshish darajasini aniq baholash imkonini beradi. Ta’lim tizimida ijodkorlikni va

¹ Key Performance Indicators (KPI) System in Education, Elena Vladimirovna Luneva1, Nadezhda Victorovna Filinova1, Vladimir Petrovich Filinov

² Key Performance Indicators in Higher Education: A Systematic Review of the Conceptualization, Dimensions, Frameworks, and Challenges of KPIs Samson Worku Teshome

³ Mustafaqulova M.B. KPI TIZIMINING TA’LIM SAMARADORLIGIDAGI O’RNI

innovatsiyalarni rivojlantirish, talabalarda zamonaviy ko'nikmalarni va skillarni shakllantirish, sifatli ta'lim berish kabi ko'plab maqsadlar mavjud bo'lib, ularni oddiy usulda baholash qiyin hisoblanadi, bunga asosiy sabab esa aniq o'lchov birliklari mavjud emasligi hisoblanadi. KPI tizimi esa ushbu maqsadlarni aniq ko'rsatkichlar orqali o'lchash imkoniyatini yaratadi. Jumladan, bitiruvchilar soni, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlanish darajasi, talabalarni olinayotgan ta'limdan qoniqish darajasi, ilmiy faoliyat natijalari va test ko'rsatkichlari orqali oliy ta'lim muassasasining samaradorligi doimiy tahlil qilib boriladi. Bundan tashqari, KPI ko'rsatkichlari ta'lim muassasalariga boshqa oliy ta'lim tashkilotlari bilan ma'lum kriteriyalar taqqoslash imkonini beradi. Agar o'xshash sharoitdagi boshqa universitetlar ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori natijalarga erishayotgan bo'lsa, bu muassasa faoliyatini takomillashtirish zarurligini ko'rsatab beradi. KPI tizimi boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga va ko'rsatkichlarga asoslangan holda qabul qilishga yordam beradi. Natijada resurslarni to'g'ri taqsimlash, ustuvor yo'nalishlarni belgilash va strategik rivojlanishni samarali tashkil etish imkoniyati oshadi. KPI tizimi oliy ta'lim muassasasining natijadorligini tashqi manfaatdor tomonlarga ham namoyish etishda muhim vosita hisoblanadi. Jumladan, davlat organlari, hamkor tashkilotlar, talabalar va ota-onalar uchun aniq statistik ko'rsatkichlar ta'lim sifati haqida ishonchli ma'lumot berib boriladi. Hozirgi kunda ko'plab davlatlarda moliyalashtirish tizimi ham natijadorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lanib, oliy ta'lim muassasalaridan aniq KPI natijalarini taqdim etish talab qilinmoqda. Shu sababli KPI tizimi shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. KPI ko'rsatkichlari ta'lim muassasasi xodimlarining umumiy maqsadlar sari birgalikda ishlashiga yordam beradi. Professor-o'qituvchilar, bo'lim rahbarlari va boshqa xodimlar o'z faoliyatining muassasa rivojiga qanday ta'sir qilayotganini aniq ko'ra oladi. Bu esa xodimlar mas'uliyatini oshirish, mehnat samaradorligini kuchaytirish va ta'lim sifati yaxshilashga xizmat qiladi.¹

Ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan asosiy KPI ko'rsatkichlari, avvalo, akademik natijalarni baholashga uchun foydalaniladi. Dastlab talabalarni qabul qilish jarayonidagi ko'rsatkichlar muhim hisoblanib, ular orasida qabul darajasi, o'rtacha GPA natijalari hamda standart test ballari alohida o'rin tutadi.² Ushbu ko'rsatkichlar talabalar salohiyatini aniqlash va keyingi o'quv natijalarini prognoz qilish imkonini beradi. Talabalar ta'lim jarayoniga jalb qilingandan so'ng esa ularning fanlarni o'zlashtirish darajasi, baholari va kurslarni muvaffaqiyatli yakunlash ko'rsatkichlari orqali ta'lim sifati baholanadi. Shu bilan birga, KPI ko'rsatkichlarini fanlar kesimida, talabalar toifalari bo'yicha yoki an'anaviy va onlayn ta'lim shakllariga qarab tahlil qilish muammoli yo'nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

Talabalar fikrini o'rganish ham akademik KPI tizimining muhim qismi hisoblanadi. So'rovnoma orqali talabalar kurslarning samaradorligi, professor-o'qituvchilarning faoliyati va ta'lim jarayonidan qoniqish darajasini baholaydi. Bu ma'lumotlar oliy ta'lim muassasasiga ta'lim sifati oshirish va o'quv jarayonini takomillashtirish imkonini yaratadi. Oliy ta'lim muassasalari uchun eng muhim KPI ko'rsatkichlaridan yana biri talabalarni saqlab qolish va bitiruv darajasi hisoblanadi. Talabalar o'qishni tark etish holatlarining yuqori bo'lishi ta'lim dasturlari yoki talabalarga ko'rsatilayotgan xizmatlarda muammolar mavjudligini anglatadi. Bitiruv ko'rsatkichlari esa talabalarni o'z vaqtida yoki uzaytirilgan muddatlarda ta'limni yakunlash holatini baholash imkonini beradi. Shuningdek, boshqa oliy ta'lim muassasalariga o'qishni ko'chirish holatlari ham alohida monitoring qilinadi. Ushbu ko'rsatkichlar ta'lim muassasasining talabalarni muvaffaqiyatli tayyorlash darajasini ifodalaydi. Bitiruvchilarning keyingi faoliyati bilan bog'liq KPI ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasi, kredit to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishi hamda mehnat bozoridagi muvaffaqiyati ta'lim sifati amaliy natijasini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar ta'limning talabalar uchun haqiqiy kasbiy va iqtisodiy qiymat yaratganligini baholashga xizmat qiladi.

Professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashda ham bir qator KPI ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Ularga talabalar va o'qituvchilar nisbati, o'quv yuklamasi, ilmiy maqolalar soni, tadqiqot faoliyati va malaka darajasi kiradi. Bundan tashqari, professor-o'qituvchilar tarkibidagi xilma-xillik, ularning jamiyat hayotidagi ishtiroki ham muhim ko'rsatkich sifatida qoraladi. Bu omillar ta'lim sifati oshirish va talabalarga turli qarash hamda tajribalarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

¹ <https://www.spiderstrategies.com/>

² Key Performance Indicators in Higher Education: A Systematic Review of the Conceptualization, Dimensions, Frameworks, and Challenges of KPIs, Samson Worku Teshome 2025

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda zamonaviy ta’lim tizimida ma’lumotlar boshqaruvdagi asosiy dastak bo‘lib qolmoqda. Shu jihatdan KPI ko‘rsatkichlari oliy ta’lim muassasalariga strategik maqsadlarni belgilash, resurslardan oqilona foydalanish, natijalarni baholash hamda doimiy rivojlanishni ta’minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Har bir ta’lim muassasasi o‘zining faoliyat yo‘nalishi, talabalari va ustuvor maqsadlaridan kelib chiqib mos KPI tizimini shakllantirishi mumkin. Bu esa boshqaruv qarorlarini yanada aniq va samarali qabul qilish imkonini beradi.

KPI ma’lumotlarini muntazam yig‘ish, tahlil qilish va monitoring olib borish orqali ta’lim jarayonidagi mavjud muammolarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkoniyati yaratiladi. Natijada boshqaruv tizimi yanada maqsadli va natijador shaklga ega bo‘ladi. Shuningdek, barcha xodimlarning umumiy KPI ko‘rsatkichlari asosida faoliyat yuritishi muassasa oldiga qo‘yilgan strategik vazifalarning samarali bajarilishiga xizmat qiladi.

Taklif sifatida, oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini xalqaro tajriba asosida bosqichma-bosqich takomillashtirish, raqamli monitoring platformalarini joriy etish hamda natijalarni ochiq va shaffof tarzda tahlil qilish tizimini yo‘lga qo‘yish, bundan tashqari OTMlarda har bir xodimning ilmiy darajasiga mos holda KPI qo‘yish tavsiya etiladi. Bu OTM rahbarlariga boshqaruv samaradorligiga erishishni qisman ta’minlaydi. Shuningdek, KPI natijalarini xodimlarni rag‘batlantirish va motivatsiya qilish tizimi bilan integratsiya qilish ham muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алексей Константинович Клочков. “KPI и мотивация персонала. Полный сборник практических инструментов”.
2. Д.М. САФИНА. “УПРАВЛЕНИЕ КЛЮЧЕВЫМИ ПОКАЗАТЕЛЯМИ ЭФФЕКТИВНОСТИ”. Казань – 2018.
3. Parmenter D. Key Performance Indicators: Developing, Implementing and Using Winning KPIs. – Wiley, 2015.
4. Toshov Mirzabek Hakimovich. “XODIMLARNI BOSHQARISHDA KPI SAMARADORLIGI TAHLILI”. Economy and Innovation. 2024.
5. ISAHP 2007, Viña Del Mar, Chile “Key Performance Indicators Measurement Model Based on Analytic Hierarchy Process and Trend-Comparative Dimension in Higher Education Institution”
6. www.researchgate.net
7. www.cyberleninka.ru
8. www.wikipedia.uz

А.Иброхимов, М.Алимова Эффективное внедрение и использование системы KPI в высших образовательных учреждениях Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования текущего состояния системы KPI в высших образовательных учреждениях и эффективного использования зарубежного опыта в её применении. Проанализирована роль системы KPI в объективной оценке деятельности профессорско-преподавательского состава и сотрудников в образовательном процессе. Также рассмотрены практические методы применения KPI-показателей для повышения качества образования, эффективности управления и финансовых результатов. Проанализированы преимущества внедрения системы KPI, существующие проблемы и пути их решения. Ключевые слова: KPI, современный процесс управления, высшее образовательное учреждение, эффективность, студенты, потенциальные способности, личные показатели, показатели, рейтинг, доход.	A.Ibrokhimov, M.Alimova Effective Implementation and Management of the KPI System in Higher Education Institutions Abstract. This article examines the improvement of the current state of the KPI system in higher education institutions and the effective use of foreign experience in its implementation. The importance of the KPI system in accurately evaluating the performance of professors, teachers, and staff in the educational process is analyzed. In addition, practical methods of applying KPI indicators to improve education quality, management efficiency, and financial performance are discussed. The advantages of implementing the KPI system, existing problems, and ways to overcome them are also analyzed. Keywords: KPI, modern management process, higher education institution, efficiency, students, potential abilities, personal indicators, indicators, ranking, income.
---	--

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.